



XO'JAYKON TUZ KONIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.

Yoqubova Qunduz Faxriddin Qizi

Termez Davlat Pedagogika Institute Talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8208484>

Anontatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan. Xo'jaykon tuz konidan foydalanish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: Xo'jaykon tuz koni, Sanatoriyasi, 6 ta kaloniyasi, Kondagi tuz zaxirasi va undan yiliga qazib olinadigan miqdor, Astma, Bronxit, Laringit, Pnevmaniya, Yuqori nafas yo'llari, Alergik kasalliklar.

O'zbekistonda dorivor xususiyatlarga ega bo'lgan o'ziga xos tabiat maskanlari mavjud.

Shulardan bittasi bizning jannatmakon yurtimizda joylashgan Xo'jaykon tuz g'ori hisoblanadi. Bu g'or sog'liq uchun foydali g'ayrioddiy va qiziqarli joy hisoblanadi.[1]

MDH mamlakatlarida jami beshta shunday g'or shifoxonalari mavjud bo'lib shular orasida o'zining faoliyati va davolanish imkoniyatlari bilan bu g'or alohida ajralib turadi.[2]

Xo'jaykon tuz g'ori Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Ko'hitangtov tizmasi tog' etaklarining janubiy-sharqiy yon bag'rida joylashgan bo'lib, dengiz sathidan 1200 metr balandlikda joylashgan. Bu g'or 1989-yilda ochilgan va tashqi tomondan katta tuz monolitini esga soladi, uning ichida go'yoki sa'nat galeriyalari tizimi joylashgan.

Bu kon 1942-yilda ishga tushurilgan.

Tuzlarning razvedka qilingan zaxirasi 46 mln t, yiliga 150 ming tonna karyerlardan qazib olinmoqda.[3]


Xo'jaykon tuz konida osh tuzi yirik donali tarkibida 92,3-99,7% NACI mavjud. Kondagi osh tuzi qatlamining qalinligi 350-400m ga yetadi. Kondagi tuz qatlamlarining rangi oq, sariq, pushti, qizil rangli qatlamlari mavjud.

Tuz qatlamlari 150-300 m qalinlikdagi qum gil qumtosh, ohaktosh kabi to'rtlamchi va quyi bo'r davrlariga mansub yotqiziqlar bilan qoplangan.

Kon yotiq sinklinal burmada joylashgan bunda tur qatlamlari teskari qatlamlangan bo'lib, oq turlar yuqorida qizil turlar pastda joylashgan.

Qizil tur qatlamlarida kaliy tuzlarining 6 qavati ajralib turadi.[4]

Xo'jaykon tuz g'orining asosiy ta'siri havodagi tuz va yengil salbiy aeronlarning konsentratsiyasi tufayli erishiladi. Bu o'pka kasalliklarini davolashda foydali ta'sir ko'rsatadi.





G'orda davolanish kuniga taxminan 2-2,5 soat davom etadi.Doimiy harorat va namlik yordamida erishiladigan noyob mikroiklim havoning ifloslanish ehtimoli bo'lmagan eng toza havo muhitiga aylantiriladi.

Bu xushmanza g'orimizning sanatoriyasi ham mavjud bo'lib u 6 kalonnadan iborat.

Har bir kalonnada maxsus joy qilingan bo'lib kasallik turiga va yosh mutanosibligiga va sharoitlariga qarab bemorlar joylashtirilgan.[5]

Kolonnalar ichida bir-biridan harorati, bosim va mikroiklim bo'yicha farq qiluvchi beshta davolash xona kameralari mavjud.G'or devorlari o'ziga xos tarzda bir santimetrdan uch santimetrgacha bo'lgan tuz qatlami bilan qoplangan, o'tish joyida tuz eritmali shifobaxsh buloq bor.

Yil davomida havo harorati 7-27 daraja, nisbiy namlik 50-70% atmosfera bosimi 700mm simob ustuni atrofida saqlanadi.

Havoda magniy, kaliy, temir gidroksidi kabi elementlari va yigirmaga yaqin mikroelementlar mavjud.

Xo'jaykon g'orida bo'lish nafas yo'llarining allergik kasalliklari uzoq davom etadigan o'tkir va surunkali bronxit, astma, pnevmaniya asoratlari, immuniteti pasaygan bemorlar va teri kasalliklari va yuqori nafas yo'llarini davolashda foydali hisoblanadi.

Nafaqat O'zbekiston hududidagi balki qo'shni davlatdan xususan Qozog'iston,Qirg'iziston ,Turkmaniston, Tojikistondan bemorlar kelib bu yerda davolanib o'z dardlariga shifo topib ketishmoqda.[6]

Xo'jaykon tuz koni hozirgi kunda mamlakat ahamiyatiga molik sanoat korxonasidir.

Yiliga 93 ming t osh tuzi qazib chiqarilmoqda.

1995yil AQSHdan keltirilgan jihozlar bilan ishlaydigan iste'mol tuzi, kon hududida ishga tushurilgan.

Xulosa: Xo'jaykon tuz konidan foydalanish imkoniyatlari juda keng qamrovli bo'lib bu yerda yuqorida keltirilgani kabi 6ta kalonna mavjud. Sanotoriyasida bemorlarni xorijiy davlatlardan keltirilgan maxsus mutaxasis shifokorlar tomonidan xizmat ko'rsatiladi.

Faoliyatini 1942-yilda boshlagan bo'lsada hozirgacha o'zini sharoitlari, qulayliklari, imkoniyatlari bilan dardiga davo izlab kelgan bemorlarni shifo topib ketishida o'z xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.RAXMATULLA XAITBOYEV "EKOLOGIK TURIZM " TOSHKENT 2018.

2.BALLIEVA.R, TURDIMAMBETOV.I, "TABIATDAN FOYDALANISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI" NUKUS 2020.





3. M.R.USMONOV, T.J JUMABOEV, O.SHERXOLOV, "TURIZM GEOGRAFIYASI"
SAMARQAND 2012.

4."РЕКРУАЦИОННАЯ ГЕОГРАФИЯ" ЭД.В.НИКОЛАЕНКОЮ.

